



МУҲАДИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ

илимий-методикалық журнал № 3/1



Нөкис - 2022

МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 3/1 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:
Маъсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлкин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:
Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПНИИ
Қарақалпақстан филиалы

Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сўз хэм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген маглыўматларға автор жуўапкер.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Ilmurodova F.Sh. Kurslararo uzviylik asosida tarix fanlarini o'qitishning pedagogik va metodik talablari	78
---	----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Gaipov M., Eshqoraev Q., Abdullaev Sh. O'quvchilarni irratsional tenglamalarni yechishga o'rgatishning zamonaviy metodlari	84
Mardonqulov J.A., Majidov Sh.A., Ubaydullayeva S.I. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini baholash metodikasini takomillashtirish	86
Usmonov B.Z., Eshqorayev Q.A., Eraliyeva M.M. Tengsizliklarni koordinatalar usulida yechish	91
Abduqodirova P.T. Informatikadan maxsus kompetensiyalarni shakllantirish zarurati	94
Kutlimurotov A.R., Usmonov B.Z., Qurbonboev H. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarni variativ usullarda yechishni o'rgatish usullari	98
Djumabaeva S.K. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslaridastatistik ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasi	102
Olimova A.A. Zamonaviy geografik maydonchani o'quv jihozlari va ularning geografiya fanini o'qitishdagi ahamiyati	105
Eshqoraev Q.A. Informatika darslarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi masalalar	109
Abdullayeva N.A. Geometrik mazmundagi masalalarni kichik yoshidagi maktab o'quvchilarining geometrik bilimlarini oshirishdagi o'rni	111
Solaeva M.N. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilariga ba'zi misollarni o'rgatishda kreativ fikrlashni shakllantirish ko'nikmalari	116

БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Eshchanova G.O., Erismetova R.K., Ollayorova B.M. Boshlang'ich sinf o'qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishning shakl, metod va vositalari	120
Abdunazarov A.O. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omillari	123
Elmuratova D.M., Utanbayeva D.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari	127
Abdunazarov A. O. Aqli zaif bolalar toifalari va ularning o'ziga xos rivojlanishi	132
Sattarova I.M., Maxammatova M.J. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi	137
Ubaydullayev I. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish	142
Mamadaliyeva N.B. Uzluksiz ta'lim sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish	147
Tosheva N.T., Murodova Sh.Sh., Qodirova N.Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	151
Tosheva N.T., Zaynilloyeva G.O., Qodirova N.Z. Katta yoshdagi bolalarni oilaviy va milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalash	155

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Turapova Sh.X., Anqaboyev D.B., Xolnazarova D.T. Yosh voleybolchilarni tayyorlashda sport trenirovkasining ahamiyati	163
---	-----

yaxshi bilishlari lozim. Bunda ular tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati to'g'risidagi qarashlar tizimi, ya'ni bu moddiy kishilarning o'rni, ahamiyati va mohiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat monitoringini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Monitoringda atrof, tabiiy muhit va tabiiy resurslarning davriy o'zgarishlarini (kadastr ma'lumotlariga asoslangan tarzda) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimini chuqur o'rganish tarbiyachilarning ekologiya haqidagi bilimlarini oshirib beradi. Bunda ular tabiatga munosabat, atrof – muhitni muhofaza qilish, tabiatni milliy va xalqaro ahamiyati haqida bilimga ega bo'lishlari lozim.

Chunki, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari hayotga mustaqil qadam qo'nganlarida tabiatning "bo'y sindiruvchi" siga emas, balki uning yaratuvchisiga, himoyachisiga aylanishi kerak. Bu ishda shubhasiz ularga ustozlari, murabbiylari va tarbiyachilari yordam berishlari maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>
2. 2017 yil 28 iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-sonli qarori.
3. Авазов Ш. Экологическое воспитание старшекласников сельской в школе процессе краеведческой деятельности. АКД 1993 у.
4. Alimbetov N. Murakkab ekologik vaziyat sharoitida iitisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish. NDA, T, 2000 у.
5. Mirzayev T. , G'ofurov Z. Tabiatni e'zozlash-umumbashariy muammo. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2001 y.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar toppish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi keng yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются педагогические особенности формирования у дошкольников любви к природе через народные обряды, формирование у дошкольников знаний, умений и компетенций об окружающем мире и его проблемах, а также поиск оптимальных путей их решения. В связи с этим в статье раскрывается цель экологического воспитания в дошкольном образовании.

SUMMARY

This article discusses the pedagogical features of forming a love of nature in preschool children through folk rituals, the formation of knowledge, skills and competencies in preschool children about the environment and its problems, as well as finding optimal solutions to them. In this regard, the article elaborates on the purpose of environmental education in preschool education.

KATTA YOSHDAGI BOLALARNI OILAVIY VA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA AXLOQIY TARBIYALASH

Tosheva N.T.

BuxDUPI maktabgacha ta'lim kafedrası p.p.f.d., (PhD) dotsent

Zaynilloeva G.O.

BuxDUPI 1-kurs maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Qodirova N.Z

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti talabasi.

Tayanch soʻzlar: milliy qadriyatlar, taʼlim-tarbiya, xalq ogʻzaki ijodi-folklor, xalq donishmandligi, urf-odat, vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, doʻstlik, vafodorlik.

Ключевые слова: национальные ценности, воспитание, фольклор, народная мудрость, традиции, патриотизм, мужество, героизм, трудолюбие, дружба, верность.

Key words: national values, education, folklore, folk wisdom, tradition, patriotism, courage, heroism, diligence, friendship, loyalty.

Oʻzbek xalqining milliy qadriyatlaridan oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashda, oilada bolalarning axloqiy xislatlari, milliy qadriyatlarga hurmatlarini tarbiyalash tushuniladi.

Shunday ekan, oilaviy tarbiyaga doir tushuncha va tamoyillar uning manbalari asosida yoshlarga yetkaziladi. Bunda oʻzbek xalqining milliy qadriyatlarining manbalari keng va boy material beradi.

Aytish lozimki, oʻzbek xalqining milliy qadriyatlarida taʼlim-tarbiyaga doir empirik bilimlar koʻproq xalq ogʻzaki ijodida namoyon boʻlgan. Xalq ogʻzaki ijodi-folklor-xalq donishmandligi boʻlib, xalqning didi va zavqi, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy, badiiy-estetik qarashlarini oʻzida mujassamlashtiradi. Ana shu qarashlari tarkibida turli sohalariga oid bilimlar ifodalanadi. Chunki xalqning butun hayotiy, ijtimoiy-maishiy turmush tajribasi maqollar va iboralarda aks etadi.

Shuning uchun ham xalq ogʻzaki ijodining ijtimoiy qimmati maʼrifiy, gʻoyaviy-tarbiyaviy va estetik ahamiyati bilan belgilanadi. Uning maʼrifiy ahamiyati shundaki, u xalqning tarixi, urf-odati, maishiy turmushi, dunyoqarashi, hayotga munosabati, orzu-umidlari haqida bilim beradi. Shuning uchun ham bolalar ongiga milliy istiqloq mafkurasini singdirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bularning barchasi xalq ogʻzaki ijodining tarbiyaviy imkoniyati katta ekanligini koʻrsatadi.

Maʼlumki, Oʻrta Osiyo va oʻzbek xalqi mutafakkirlarining asarlari, tarixi, milliy urf-odatlar va anʼanalari, diniy taʼlimotlar, oʻyin va oʻyinchoqlar, xalq amaliy sanʼati va hunarmandchiligi, tasviriy sanʼat, tarixiy yodgorliklar va milliy meʼmorchilik, xalq raqs sanʼati shular jumlasidandir.

Oilada maqolning bolalarni tarbiyalashda imkoniyatlari keng boʻlib, oʻzbek xalq maqollari odob-axloq qoidalarini oʻzida mujassam etgan, hayot tajribasidan oʻtgan kichik janrdir.

Masalan, «Ishlaganning ogʻzi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar» maqolida xalqning uzoq asrlik hayotiy tajribalari mujassamlashgan. Bundan tashqari maqollarda turmush hodisalari bilan bogʻliq boʻlgan vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, doʻstlik, vafodorlik kabi axloq meʼyorlari maʼqullanadi, egrilik, yomonlik, umidsizlik, yolgʻon gapirish, yalqovlik, ochkoʻzlik kabi illatlar qoralanadi.

Ayniqsa, ona Vatanni sevish, unga muhabbat, sadoqat tuygʻulari maqollarda ifodalanar ekan, oʻzi yashagan uy-xonadon shu Vatanning bir parchasi sifatida namoyon boʻladi;

Bulbul chamanni,

Odami Vatanni sevar.

Ona yurtning omoni boʻlsa,

Rangi-roʻying somoni boʻlmas.

Maqollarda insonning yaxshi xislatlari ulugʻlanadi, ochkoʻzlik, tekinkoʻrlik, yolgʻonchilik, ayollarga past nazar bilan qarash qoralanadi. Odamlarni hushyor boʻlishga, doʻstni dushmanidan ajratishga, ota-onani, doʻstlarni qadrlashga, kichiklarni izzat qilishga, kattalarni hurmat qilishga oʻrgatish bilan oilaviy munosabatlarni yaxshilashga yoʻllaydi.

Hurmat qilsang, hurmat koʻrsan.

Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga,

Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

Ayniqsa, oʻzbek xalqi mehnat jarayonida, yaʼni kuz va qish kechalarida koʻsak chuvish, charx yigirish, olacha, gilam toʻqish va boshqa ishlar jarayonida topishmoqlar aytgan va bu topishmoqlarda oilaviy-maishiy, turmush tarzi ifodalanagan.

Topishmoqlar kishilarning aql-farosati, topqirligi, serfahmliligi, hayot tajribalaridan kelib chiqqanligi bilan ham tarbiyaviy imkoniyati katta. Topishmoqlar o'z xususiyatlariga ko'ra ikki yoki undan ortiq bolalar yoki bolalar va kattalar o'rtasida mustaqil fikr yuritish yo'li bilan qizg'in savol-javob usulida, tortishuv va bahslashuvlar orqali olib boriladi. U kishilarni atrofdagi voqea-hodisalarga befarq qaramaslik, uni to'g'ri idrok etish, sezish, izlanish, tafakkur qobiliyatini rivojlantirish, o'z fikrini dalillar bilan isbot etishga yo'llaydi. Bularning barchasi oila a'zolarida zukkolik, zehnlilikni tarbiyalashga katta yordam beradi. Topishmoqlar oila davralarida ko'proq aytiladi. Xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, qo'shiqlar, alla, yor-yor, o'lan, aza-yig'i kabilar xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab olgan. Bu qo'shiqlarda oilaning eng birinchi odob qoidalaridan tortib, kundalik me'yorlarigacha odatlantirish tamoyillari ifoda etilgan. Masalan «Alla»ni olaylik. Bu qo'shiq bolalarni uxlatish vaqtida onalar tomonidan kuylanadi.

Onaning orzu-havasi, niyatlari, bolalarning kelajagi haqidagi orzu-o'ylari allalarda ifodalanadi. Chunki ona o'z farzandining yaxshi inson bo'lib yetishuvini istaydi. Shuning uchun ona allada sof insoniy xislatlar, go'zal fazilatlarini kuyga solib kuylaydi. Farzandining kelajakda baxtli, saodatli bo'lishi, sog'lom va pahlavon, jasur bo'lib voyaga yetishini orzu qiladi. Allalarda onaning mehri, uning farzandiga bo'lgan beadad muhabbati ifoda etiladi.

Senga qo'ydim yaxshi ot, alla

Yaxshi niyatdir murod, alla

Yurtda elga suyansang, alla.

Senga bo'lg'usi qanot, alla

Allalarda onalarning ruhiy olami, his-hayajoni, orzu-niyatlari ifodalanib, ularda tarbiya ruhi ham aks etadi. Donishmandlar «alla aytmagan onaning farzandida mehr kuchli bo'lmaydi», deyilar.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda «To'y qo'shiqlari» ham katta ahamiyatga ega. To'y qo'shiqlaridan «yor-yor»lar yigit-qizning baxtini tilash, ularning kelajagini ulug'lash bilan boshlangan. «Yor-yor»lar qiz uzatish kechasida aytilgan. Ular chuqur ruhiy, lirik kechinmalarga boy bo'lib, qiz ota-onasining ta'rifi, orzulari, uning sifatleri, turmush nasihatleri, uning borgan joyida unib-o'sib, serfarzand bo'lishga oid tilaklari kuylanadi:

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor;

Qizni olib yangalari o'tlanadi, yor-yor.

Qizni olib yangalari tura-tursin, yor-yor;

Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin, yor-yor.

Bu «yor-yor»da qizning baxtli umrga qadam qo'yishdek yupanch hissiga uning otasini bilan xayrlashuviga, balog'at yoshga yetkizgan ota-ona xonadonidan chiqishda bir yupanch bo'ladi.

«Yor-yor» aytuvchilar ko'z yoshi bilan qadrdon ota-onasi va boshqa oila a'zolari bilan xayrlashayotgan qizni oldinda obod xonadon, sevimli yor kutayotganini aytib, uni yupatishga harakat qiladilar, yangi oilaga chorlaydilar.

Ayrim qo'shiqlarda ona uzatilayotgan qizining kelajak hayotidan xavfsirashi, jiggargo'shasidan ayriliq azoblari ifodalanadi:

Tokchadagi qaychini

Zang bosibdi, yor-yor;

Kelin oyim onasini

G'am bosibdi, yor-yor.

Uzoqqa qiz berganning

Rangi sariq yor-yor;

Ko'zlaridan yosh oqar

Misli ariq, yor-yor.

Yig'lama qiz yig'lama,

*To 'y seniki, yor-yor;
Ostonasi tillodan
Uy seniki yor-yor.
Ko'rpachasi shohidan
To'r seniki, yor-yor.
Mo'yablari qilichdek,
Yor seniki, yor-yor.*

Ular notanish, mavhum bir hayotga qadam qo'yayotgan qizni boradigan xonadonida uni izzat-ikrom bilan kutishayotgani, sevimli yor bilan yashashdek baxtga muyassar bo'lishi bilan yupatadilar.

Kelin kuyov xonadoniga kelgandan so'ng «Kelin salom» tadbiri o'tkaziladi. Yangi xonadonga qadam qo'yayotgan kelinning egilib salom qilishi ham uning o'z turmush o'rtog'i va boshqa qarindoshlarga hurmati ramzi hisoblanadi va bu hurmat uning keyingi hayotida davom etishi olqishlanadi. Lekin, afsuski, hozirgi davr to'yalarida yor-yorlar asta-sekin yo'qolib bormoqda, milliy qadriyatlar sifatida bu qo'shiqlarni tiklash zarur.

Bundan tashqari xalq orasida yig'i-yo'qlovlar ham bo'lib, marhumlar xotirasiga bag'ishlanadi va ular ruhi yod etiladi. Bu yig'i-yo'qlovlarda oila a'zolarining g'am-alami ifodalanadi, marhumlarning xislatlari yod etiladi. Marhumning ta'rif-tavsifi bayon qilinadi. Masalan, ota vafotida farzandlar:

*Baland tog'lar past bo'ldimi, voy otam, voy otam,
O'lganingiz rost bo'ldimi, voy otam, voy otam,
Shamol kelmay o'chdi chirog'im, voy otam,
Kuz kelmay, xazon bo'ldi bog'im, voy otam.*

Onaizor o'limi tufayli motamsaro farzandlarning yig'isida mehr-oqibat va sadoqat tuyg'usi, onaning farzand uchun soyabon ekanligi yo'qlangan.

*Tut yog'ochday mevali, onam.
Qayrag'ochday soyali, onam,
Bo'sh bellarimni bog'lagan, onam,
Abgor yuragimni ovlagan, onam,
Yaxshi kunimda saltanatli onam,
Yomon kunimda himoyatli, onam.*

Xalq og'zaki ijodida shunday janr borki, bu haqda juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Bular olqishlar bo'lib, ular inson tasavvurida sog'lomlik, baxt keltirishiga ishonch bildirilgan. Yaxshi istaklar tilash, xayrixohlik bildirish inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning kayfiyatini ko'targan. Olqishlar xalq o'rtasida fотиha, duo kabi tushunchalar bilan yuritilganligi sababli islom aqidalari bilan aloqada deb qaralgan. Lekin olqishlar insonga yaxshi istaklar tilashdan iborat insonparvarlikni targ'ib etuvchi folklor janri hisoblanadi. Zero, «olqish» turkiy tillarda «maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash» ma'nolarini bildiradi. Olqishlar oilaviy-maishiy turda ikkiga bo'linadi:

1. An'anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlar.
2. Kundalik maishiy yoki marosim olqishlari.

Kundalik olqishlar davradagi yoshi ulug'roq shaxslar tomonidan aytiladi.

Olqish ijrosi hozirgi paytda oila boshliqlariga o'tgan. Kundalik maishiy olqishlar inson faoliyatining turli sohalariga bag'ishlanadi. Shulardan biri uchrashuv olqishlari.

Insonlar bir-birlari bilan uchrashganlarida olqish aytib, yuzlariga fотиha tortadilar. «Omin, tinchlik-omonlik, xotirjamlikni bersin, Ollohu akbar» yoki «Qadam yetdi, balo yetmasin, Ollohu akbar». So'ng uchrashganlar hol-ahvol so'rashadi. Lekin yoshlar o'rtasida bu tilak unutilib ketayapti. Bu olqishlar davr talablari nuqtayi nazaridan kishilar ruhiy olamiga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi fотihalar yuksak insonparvarlik va axloqiylik alomatidir.

Olqishlarga dasturxon fотihalari ham kirib, taomdan oldin va keyin, dasturxon yig'ilganda

aytiladi. Odamlarning dasturxon atrofida to'plangandagi shukronasi fотиha tarzida ifodalanadi. Taomdan so'nggi olqishlarda esa dasturxonga baraka, kishilarga rizq-ro'z, sihat-salomatlik tilab fотиha qilinadi. «Omin, keng fe'l, ketmas davlat, uzoq umr, tinchlik-omonlikni bersin, Ollohu akbar». Taomdan so'ng esa «Omin, xayri baraka, xotirjamlik, to'kin sochinlik, omonligini bersin, Ollohu akbar». Olqishlarda ayrim shaxslar o'zlarining variantlarini ham yaratadilar. Olqishlar kishilarga kuchli ta'sir etib, ular ruhiy oziq oladilar.

Dasturxon atrofiga o'tirishdan oldin qo'l yuviladi. Yoshlar, ko'pincha kelinlar keksalar qo'lga suv quyadilar. Suv quyganni ham olqishlaydilar. Sog'liq, uzoq umr, baxt tilaydilar. Dasturxon xalqimizda eng muqaddas hisoblanadi. U hamma vaqt toza, ozoda saqlanishi, taom yeyilgach, ustidagi narsalar yig'ishtirib olinishi, dasturxon belgilangan joyga qoqilib, bunda «Shu yegan taomning savobi ota-bobolarimiz arvohiga yetsin» yoki «Shu yegan taomning savobini ota-bobolarimiz haqiga bag'ishladim» deyishga yoshlarni o'rgatish zarur. Bu bilan o'tganlarning xotirasi yod olinadi.

Odatda har bir turdagi taom yeyilgach, ularning o'ziga xos maxsus olqishlari mavjud. Ammo hozirgi paytda qovun, go'sht, osh yeyilgandan keyin aytiluvchi olqishlarga saqlanib qolgan. Masalan, qovun yeyilgandan so'ng «Shirin-sharbat, manzil obod, payg'ambar Xudoga salovat, ekkanning, tikkanning ota-bobosiga rahmat, Ollohu akbar» deb fотиha o'qiladi.

So'zning ta'sir qudratiga ishongan odamlar qanday ishga qo'l urmasinlar, albatta olqishga murojaat etganlar. Biror ishni boshlashdan oldin fотиha berilgan. Masalan, qo'sh haydashni boshlashdan oldin, safarga chiqish oldidan ham oila keksalaridan fотиha olingan. «Omin, oy borib, omon qayt, olgin-oldirma, ushlaganing bol, dushmanlaring lol bo'lsin, Ollohu akbar».

Shuningdek, oy yangilanganda yaxshi tilaklar bildiriladi, qabriston yonidan o'tayotganda fотиha o'qiladi, «Qur'on» suralaridan biri tilovat qilinadi, azali xonadonga ta'ziya bildirish, to'y bo'layotgan xonadonga qutlovga kirish va unda yaxshi istaklar bildirib, fотиha o'qish ham yoshlarimiz bilib olishi kerak bo'lgan ezgu odatlarimizdir. To'yda: «Omin, qo'shgani bilan qo'sha qarisin, umrlari uzoq bo'lsin, topganlari to'ylarga buyursin, o'zlaridan ko'payishsin, uvali-juvali bo'lishsin, Ollohu akbar», deyiladi. To'yda o'qiladigan olqishlar to'yning xarakteriga qarab o'zgarib turadi.

Demak, olqishlar xalqimizning asrlar davomida ezgulik, inson va uning baxt-saodati haqida kuylab kelgan barhayot qo'shig'idir. Dasturxon atrofida yig'ilgan oila a'zolari bitta-bittadan indamay turib ketganidan ko'ra bir vaqtda to'planishib, yaxshi tilaklar tilab ovqatlanishi, ularning o'zaro mehr-oqibatli bo'lishiga yordam beradi. Demak, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda olqishlar katta ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bular o'zbek xalqining milliy qadriyatlarining muhim manbai sifatida ham xalq og'zaki ijodi, ham an'analar, urf-odatlar sifatida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda cheksiz imkoniyatlarga ega. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, ayniqsa, diniy ta'limot o'ziga xos xususiyatga ega. Zero, asrlar osha islom axloqi o'z vaqtida har bir mo'min-musulmonning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etgan.

Islom dini kishilarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda ijobiy ahamiyatga ega. Yoshlarni axloqiy yetuk inson sifatida tarbiyalash, yaxshi fazilatlar va ma'naviy xislatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

«Qur'oni karim»da Olloh barcha yaratgan narsalarni, mavjudotlarni, maxluqotlarni, odam va uning avlodlarini juft qilib yaratganini xabar berib shunday deydi: «Yer undirib – o'stiradigan narsalardan, odamlarning o'zlaridan va yana ular bilmaydigan narsalardan iborat barcha juftlarni yaratgan Olloh har qanday aybu nuqsondan pok zotdir» (Yosin-30). Demak, Olloh bu dunyodagi hayot bo'lishi va odam naslining uzilmasligi uchun juft bo'lib yashamoqlikni sunnati ilohiyisi bilan belgilab qo'ygan (Nahl-72). «Olloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun bolalar, nabiralar paydo qildi va sizlarni halol pok rizqlardan bahramand etdi» (Nahl - 72).

Inson hayotidagi eng muhim voqea oila qurishga ham katta e'tibor bergan va oyatlarda

oila, uning tinch-totuvligi, mustahkam, ahil bo'lishi haqidagi ilohiy ko'rsatmalar o'rin olgan. Islomda har bir inson o'ziga doimiy sukunat va orom baxsh etishga sabab bo'ladigan umr yo'ldoshini ixtiyor etishda shoshilib, zohiriy husnu jamol, molu dunyo yoki naslu nasab kabi o'tkinchi narsalarga berilmay, balki bo'lajak just halolining axloqi, odobi va diyonatiga ahamiyat berish targ'ib etilgan.

Ixtiyor etilgan ayol inson farzandlarining onasi, o'zining umri bo'yi yaxshi-yomon kunlariga madad bo'ladigan va subhatdosh turmush o'rtog'i bo'lishi kerak.

Payg'ambarimiz Muhammad S.A.V. ayol tanlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur ekanligini bayon etganlar: «Ayollarni to'rt xislati uchun nikohga olinadi: moli dunyosi uchun, chiroyi uchun, nasli-nasabi uchun va dinu diyonati uchun, sen ey muslim, dinu diyonatli ayolni tanlagin! Chunki dinu diyonatli qiz-ayol axloqli, odobli, iffatli bo'lib, o'zining va erining sharafini saqlaydigan, erining ota-onasi, qarindosh-urug'larining hurmatini joyiga qo'yadigan, erining halol rizq topib kelishiga sabab bo'ladigan, farzandlarini yaxshi tarbiyalaydigan mehribon ona bo'lishi tabiiy holdir». Bunday ayolga musharraf bo'lish Ollohning eng ulug' ne'matidan ekanini Rasululloh o'zlarining hadislarida bayon qilib shunday deganlar: «Mo'min banda Ollohga bo'lgan imonidan so'ng erishgan eng yaxshi narsa, solih xotin bo'lib, unga qarasa xursand qiladi va Ollohning amrini bajarishda eriga yordam beradi». Ayollarning faqat chiroyiga maftun bo'lib, axloq-odobini, diyonatini, naslini surishtirmay ixtiyor etishdan Rasululloh sallolohu Alayhi vassalam ogoh etadilar va e'tiqodsiz, axloqsiz oilada voyaga yetgan ayol-qizlarga uylanishdan o'zingizni asrang, deyдилar.

Hadisi sharifda o'z ifodasini topgan asosiy tamoyillarda Ollohn yagona deb bilish va uning talablarini bajarishda asosan iymon-e'tiqodli bo'lish nazarda tutiladi. Qur'oni Karimning 2-sura 83-oyatida «Faqat Ollohgagina ibodat qilasizlar, ota-ona, qarindosh-urug', yetim va miskinlarga yaxshilik qilasizlar. Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz va namozni to'kis ado qiling, zakotni bering» (2-sura, 83-oyat: 6-sura, 151-oyat) deyiladi. «Al-Isro» surasining 23-oyatida esa «Parvardigoringiz yolg'iz. Uning o'ziga ibodat qilishlaringizni hmda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» tortma va ularning so'zlarini qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so'z ay! Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanoatini past tut, hokisor bo'l va: «Parvardigorim meni (ular) go'daklik chog'imdan tarbiyalab o'stirganlaridek, sen ham ularga rahm-shafqat qilgin», deb (haqlariga duo qil)!

Ushbu ikki oyat Islom barcha mo'min-musulmon farzandlar uchun ota-onaga yaxshilikni yolg'iz Olloh taolaga ibodatdan keyingi ikkinchi vazifa qilib qo'yadi. Lekin ana shu oyati karimada ota-onaning huquqini qozonish uchun bola tug'ishning o'zi kifoya qilmay, balki ularga ta'lim-tarbiya berish kerakligi ham uqtilgan.

«Qur'oni karim»da oila va uning mustahkamligi – farzand tarbiyasi, poklik va soflik, insoniy xislatlar, adolat va mehr-muruvvat, saxovat kabilarga katta e'tibor berilib, bu tamoyillar Hadisu shariflarda yanada rivojlantiriladi. Hadislarda ham eng ko'p ta'riflar ota-onani rozi qilish, qarindoshlarga muomala-munosabat, aka-uka, opa-singil haqida mehr-shafqat, karam haqida, yaxshi xulqlar va yomon illatlar, shuningdek, oilaviy-maishiy yondashmalar haqida ham muhim fikrlar aytilganki, ular yoshlarimizni to'g'ri yo'lga boshqaradi. Bu fikrlar oila va oilaviy hayotga tayyorlagan barcha ta'limiy-axloqiy asarlarga asos bo'lgan. Hozirgi davrda esa oilaning mustahkamligi, oilaviy munosabatlarni oqillik bilan yuritishda islomiy tushuncha va tamoyillar katta ahamiyatga ega.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, ayniqsa, xalq tabobati katta ahamiyatga ega. Chunki xalq tabobati va o'zbek xalqining milliy qadriyatlari bir-biri bilan uyg'un bo'lib, insonning oilaviy hayotida har kuni, har daqiqada uchraydi.

Tabobat ilmi, sog'lom inson tarbiyasi sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan bo'lgan «Avesto»da ham insonning tozalikka rioya qilishi, kishilarning kanallar, ko'llar, suv havzalarining tozaligiga e'tibor berishi talab etiladi.

Insonning ovqatlanish qoidalariga rioya etishi ham fuqarolik, ham xizmat, ham axloqiy burchini bajarishga ta'sir etishi, uning ma'naviy-moddiy hayoti bilan uzviy aloqada qaraladi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlarining yana bir manbai-bu xalq o'yinlari va o'yinchoqlaridir. O'yinlar yoshlarni jismonan baquvvat, botir, epchil va chaqqon qilib o'stirishda yordam beradi. Jismoniy chiniquish bilan birga xalq o'yinlari irodalilik, zukkolik, epchillikni tarbiyalaydi. Xalq o'yinlarini hozirgi davrda jismoniy tarbiya fakultetlarida o'quv dasturi tarkibiga kiritilganligi ham katta imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

Xalq o'yinlaridan «Quvlamachoq», «Yetti tosh», «Podachi», «Bekinmachoq», «Soqqa», «Chavandoz», «Chaqqonlar va merganlar» va boshqa o'yinlarni bolalar sevib o'ynaydilar va natijada ular bolalarda ijobiy xislatlarni shakllantiradilar. Eng muhimi, xalq o'yinlari uning milliy ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun ham ma'lum bir ko'nikma va xislatlarni hosil qilishga imkon beradi. Yoshlarni jismonan baquvvat, qo'rqmas, qiyinchiliklarni yengib o'tadigan, o'zini va Vatanini himoya qilishga tayyor, go'zallikni sevuvchi va uni his etadigan qilib tarbiyalashda xalq o'yinlarining imkoniyati katta.

Milliy o'yinlar xalqning yashash ehtiyojidan kelib chiqqanligi sababli ham yosh avlodni aynan shu muhitda turmush kechirishini ta'minlaganligi bilan ham muhimdir. Jismoniy tarbiya barcha fakultetlarda o'tiladi.

Demak, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida milliy o'yinlardan foydalanish oilaviy hayotga chaqqon, zukko, shu bilan birga sog'lom yoshlarni tarbiyalashda muhimdir.

Xalq qo'g'irchoq teatrlarida esa xalqning turmushi, uning qadriyatlari hatto orzu-istaklari tasvirlanib, bozorlarda, bayramlar va xalq sayillaridagi tomoshalarda namoyish etilgan. Ularda turmushdagi (oiladagi ham) insoniylik, aql-idrok, mardlik, xalqparvarlik, mehr-oqibat ulug'lanib, qalloblik, yovuzlik, boylikka hirs qo'yish kabi illatlar ustidan kulganlar. Xalqimizning axloq me'yorlari qo'g'irchoq vositasida yosh avlod ongiga yetkazilgan. Oilaviy tarbiyada ham milliy o'yinchoqlardan foydalanilgan. Bolalar ular bilan butun bir oilaviy spektakl qo'rganligi fikrimizning dalilidir.

Milliy o'yinchoqlar yashashda esa «Maktabgacha ta'lim», «Boshlang'ich ta'lim metodikasi», «Kasbiy ta'lim», «Badiiy grafika» fakultetlarida katta ishlar olib borish mumkin. Bu fakultetlarda talaba-yoshlar milliy o'yinchoqlar yashashda o'z tassavurlari, o'y-fikrlari, ijodkorligining ifodalanishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi xalq ijtimoiy hayotining ko'zgusi bo'lib hisoblanadi. Xalq amaliy san'atiga kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, tosh yo'nuvchilik, duradgorlik, yog'och va mis o'ymakorligi, gilamchilik, zardo'zlik, kashtachilik, maishiy buyumlar, beshiklar, belanchaklar, juvalar, taxtakachlar yasash, liboslar tikish kabilar kiradi va ular xalq ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bularning barchasi yoshlarda xalqimizning o'tmishi va hozirgi hayotini taqqoslash, nimaki yaratilgan bo'lsa, barchasining qadri, o'rni, ishlatilish darajasini bilishga imkon beradi. Yuqoridagilarning barchasi oila sharoitida yaratilgan bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bular bilan talaba-yoshlarning ko'pchiligi oila sharoitida tanishadilar yoki kasbiy ta'lim, badiiy-grafika fakultetlarida ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganadilar.

O'zbekistonda ganch va yog'ochga naqsh solish ham rivojlanib bormoqda. Qo'qon va Toshkent o'ymakorlik maktablari, ayniqsa, mashhur bo'lib, xonadonlardan tashqari chiqib, teatr devorlari, madaniyat saroylari, muzeylar va boshqa jamoat binolarini bezamoqda.

Samarqand atroflarida esa «julxirsi» deb nomlangan uzun patli gilamlar, Marg'ilon va Namangan atlaslari, Nukusda tayyorlanadigan namat-kigizlar, Buxoroning zardo'zlik san'ati dunyoga mashhur.

Hozirgi davrda bularga bo'lgan e'tibor, talab va ehtiyojlar ham o'sib bormoqda. Chinni va boshqa badiiy buyumlar fabrikalarda ishlangan bo'lsa, hozir mahallalarda, hatto oilalarda pudrat asosida idish-tovoq, mebel, kiyim-kechak va boshqa maishiy buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Har bir inson o'ziga kiyim tanlash, uy jihozlarining ko'rkam va shinam

bo'lishini istab, o'z didlari va go'zallik to'g'risidagi tasavvurlari bilan ham ish ko'radilar. Shuning uchun ham hozirgi davrda talaba - yoshlar kasb-hunar tanlash an'analari davom ettirib, oilaviy pudratlarda ishtirok etmoqdalar. Bu esa, yoshlar hayotining moddiy va ma'naviy tomondan barqaror, yurtimizning go'zal va boy bo'lishiga olib keladi.

Shuningdek, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari an'analardan milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, musiqa asboblari ham katta tarbiyaviy imkoniyatga ega. O'zbek milliy musiqa san'ati xalqimiz turmushi, uning quvonch va tashvishlari, orzu-istaklarini ifodalaydi. Bu bilan musiqa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda estetik qimmatga ega. Chunki go'zallik hukmron bo'lgan oilada xunuklik, yomonlik bo'lmashligi aniq va musiqa oilada bola tarbiyasiga, yoshlarning estetik didi, turmush darajasiga ta'sir etadi.

Shu nuqtayi nazaridan barcha fakultetlarda ta'lim-tarbiya jarayonida ularni keng rivojlantirish zarur. Milliy musiqa san'ati, o'zbek qo'shiqchiligi va milliy cholg'u asboblari ijrosidagi kuylar rang-barang tasviriy imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar talaba-yoshlar tarbiyasiga ham samarali ta'sir qiladi. «Dilxiroj», «Andijon polkasi», «Rohat», «Jamalagim» kabi milliy kuylar, «Cho'li iroq», «Eshvay», «Samarqand ushshog'i», «Feruz» kabi xalq mumtoz qo'shiqlari yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasida keng qo'llanilgan.

Xalq milliy cholg'u asboblari ijrosidagi kuylar ham yoshlarda ruhiy kechinmalar paydo qilib, katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Chunki biz yashayotgan muhit - ko'cha, uy, radio, televizor, teatr va kino, o'quv muassasalarida musiqa yangraydi. Musiqa katta tantanalar: «Mustaqillik», «Navro'z», bayramlari, «O'zbekiston – Vatanim manim» tadbirlari, sport o'yinlari, ommaviy sayrlarda ijro etiladi.

Musiqa san'atining eng ommaviy turlaridan bo'lib, shodlik tuyg'ulari, g'am-alam, hayajonlarda, ovoz ohanglarida yashab keladi. Musiqa insonlarga umumiy til topish, jipslashish va birlashishga yordam beradi. Bu bilan esa, oila a'zolarining qalbida ezgulik urug'ini sepib, go'zallikka oshno etadi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlarida oilada bolalarning fikrlash qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, ularning ota-ona, qarindoshlari, qo'shnilari o'z tajribalaridan kelib chiqib, ularga har-hil o'yinlarni o'ynagan. Aqlni rivojlantiruvchi xalq o'yinlarida bolalarning hayotiy bilimlarini mustahkamlashga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., Turoпова M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T. 2000. – 49 b. Bobomirzayev X. Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 173 b.
2. Vohidov M. Bola shaxsi va uning shakllanishi. – T.: O'qituvchi, 1972. – 32 b.
3. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: TDP, 1999–152 b
4. Oilaviy maktabda ta'lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari. – T.: TDP, 2001. – 10 b.
5. Xayrullayev M.M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida (Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi). 1-kitob. T.: O'zPFITI. –1992.–262 b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalairda o'zbek xalqining milliy qadriyatlarida ta'lim-tarbiyaga doir empirik bilimlar ko'proq xalq og'zaki ijodida namoyon bo'lishi, xalq og'zaki ijodi-folklor-xalq donishmandligi, xalqning didi va zavqi, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy, badiiy-estetik qarashlari, o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashda, oilada bolalarning axloqiy xislatlari, milliy qadriyatlarga hurmatlarini tarbiyalash kabi masalalar keng yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье эмпирические знания о воспитании национальных ценностей узбекского народа в большой группе дошкольников находят отражение в фольклоре, фольклорно-фольклорно-народной мудрости, вкусе и удовольствии народа, общественно-историческом, политическом, философском, художественно-эстетических взгляды, национальные ценности узбекского народа в нравственном воспитании детей в семье, нравственные качества детей в семье, воспитание уважения к национальным ценностям.

SUMMARY

In this article, the empirical knowledge of education in the national values of the Uzbek people in a large group of preschool children is reflected in the folklore, folklore-folklore-folk wisdom, taste and pleasure of the people, Socio-historical, political, philosophical, artistic and aesthetic views, the national values of the Uzbek people in the moral upbringing of children in the family, the moral qualities of children in the family, the education of respect for national values.